









**UQUVCHILAR
BILIMINI
O'ZLASHTIRISH
SAMARADORLIGINI
ANIQLASH METODI!**

Mavzu matni



O'quvchilarning **bilim saviyasi** va **o'zlashtirish darajasi** quyidagi nazorat turlarini o'tkazish orqali baholanadi:

- 
- 
- 
- 
- **joriy nazorat** – so'rovlar, nazorat ishlari yoki testlar tarzida o'quvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalari muntazam nazorat qilinadi;
 - **oraliq nazorat** – chorak tamom bo'lganda va o'quv dasturining tegishli bo'limi tugallangandan keyin o'quvchilarning bilimlari, ko'nikma va malakalarini baholash uchun amalga oshiriladi. U yozma nazorat ishi yoki testlar shaklida o'tkaziladi. Ushbu nazoratda foydalaniladigan materiallar o'quv fani o'qituvchisi tomonidan tayyorlanadi.




Har bir nazorat turi qanday shaklda o'tkazilishidan qat'i nazar, **besh ballik** («5», «4», «3», «2», «1») usulda butun sonlar yordamida baholanadi. O'quvchilarning nazorat turlari bo'yicha olgan ballari hamda choraklik (yarim yillik) va yillik (yakuniy) baholari, shuningdek, yillik reyting ko'rsatkich ballari **sinf jurnaliga qayd etiladi**. O'quvchining choraklik (yarim yillik), yillik (yakuniy) baholari va yillik reyting ko'rsatkich ballari uning **tabelida qayd etiladi**.

BILIM HAQIDA . . .

- **Bilim** — kishilarning tabiat jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan voqelik ma'lumotlar; voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan voqea va hodisalarga (qoidalarga) zid kelmasa bunday ishonch bilim hisoblanadi. Voqelik haqidagi bilgan ma'lumotlarimiz bilim darajasiga ko'tarilishi uchun quyidagi shartlarni qanoatlantirishi lozim: birinchidan, bu ma'lumotlarning voqelikka mutanosibliigi; ikkinchidan, yetarli darajada ishonarli bo'lishi; uchinchidan, bu ma'lumotlar dalillar bilan asoslangan bo'lishi lozim. Uchala shart birgalikda mavjud ma'lumotlarni bilim darajasiga olib chiqadi. Inson ijtimoiy taraqqiyot jarayonida bilmaslikdan bilishga, mavhum bilimlardan mukammal va aniq bilimlar hosil qilish tomon boradi.

REYTING HAQIDA :

- **Reyting** (ing. rating) — 1) o'quvchi va talabalarning bilimini nazorat qilish va baholash usuli. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining me'yoriy hujjati sifatida qabul qilingan. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 1998—2003-yillarda joriy bo'lib kelgan. 2003-yildan maktablarning boshlang'ich sinflarida qayta qo'llanila boshladi.





- **Uch** – javob to`g`ri, o`quvchi asosan materialni tushunadi, ammo tushuncha-larni aniq belgilay olmaydi, aloqadorliklarni mustaqil tushuntirishda qiynaladi yoki faktlarni izchillik bilan ifodalay olmaydi.

- **Ikki** – javob noto`g`ri, asosiy faktik materialni, geografik qonuniyatlarni bilmaydi, tushunchalarni belgilashda qo`pol xatolarga yo`l qo`yadi; darslik va xarita bilan ishlay olmaydi.

- **Bir** – og`zaki javob yoki yoki amaliy ish natijasi yo`q.

TEST HAQIDA :

- **Test** (ing. test — sinash, tekshirish) (psixologiyada) — shaxsning aqliy taraqqiyoti, qobiliyati, irodaviy sifatlari, shuningdek, uning boshqa ruhiy xususiyatlarini tekshirishda qoʻllaniladigan qisqa standart mashklar. Ijtimoiy amaliyotda test odamning qanday kasb-hunar egallashi mumkinligi, uning kasbga layokati yoki layoqatsizligini, isteʼdodli yoki aqli zaifligini aniqlashda, muayyan hamkorlikdagi faoliyatga shaxslarni saralashda keng qoʻllaniladi. Uning yordamida tajribaning ilmiylik darajasi, kafolatligi, tekshiriluvlarning mahorati, qiziqishi, toʻplangan amaliy maʼlumotlarning haqqoniyligi, ishonchlilik koʻrsatkichi bir necha mezonlarga asoslanib taxlil qilinadi.

TEST TARIXI :

- Testning nazariy asoslarini ingliz psixologi Fransis Galton (1822—1911) ishlab chiqqan (1883). "Test" terminini birinchi marta amerika psixologi Jeyms Kettell (1860— 1944) qoʻllagan (1890). U Testlar yordamida tanaga taʼsir etuvchi qoʻzgʻatuvchilarning idrok qilinishi vaqtini, refleks tezligini, reaksiya muddatlarini, teriga taʼsir oʻtkazishda hosil boʻluvchi ogʻriq sezgilarini, harflar qatorini esda olib qolish darajalarini aniklash mumkin, deb hisobladi. Fransuz psixologi A. Bine va uning shogirdi T. Simon insonning aqliy oʻsishi va isteʼdodi darajalarini oʻlchash imkoniyati borligi gʻoyasini olgʻa surganidan keyin aqliy Testlar nazariyasi keng yoyildi. Miqdoriy maʼlumotlarni statistika metodikalari yordamida hisoblab chiqish yuzaga keldi. Amerikalik Lyuis Permen (1877—1955) insonlarning aqliy qobiliyatlarini uzluksiz 50-yil davomida oʻrgangan.

Hozirgi davrda testlar quyidagi turlarga ajratiladi:

- maqsadga erishuv testlari (bilimlarni oʻlchashga qaratilgan); akliy testlar (zehn, aklidroq, aklzakovat, isteʼdodni aniklashga yoʻnaltirilgan);
- ijodiyot testlari (ijodkorlik, bunyod etishlik darajalarini tekshiruvchi);
- mezoniy moʻljallangan testlari (oʻquv yoki kasbiy bilimlar va topshiriklarni qaysi koʻnikma, malaka, xatti harakat tizimi orqali oʻlchash mumkinligi);
- shaxsga oid testlar (xususiyat, bezovtalanish, sifat, fazilat, xislatlarni oʻlchashga aloqador);
- proyeksiyaviy testlar (tashqi taʼsirsiz shaxs oʻzini oʻzi oshkor qilishiga moʻljallangan) va boshqa

**DARSNING OLTIN
QOIDALARI**

AHILLIK

ANIQLIK

INTIZOM

FAOLLIK

**O'NG QO'L
QOIDASI**

**O'ZARO
HURMAT**



**Ilmdan yaxshiroq hazina
bo'lmas,
Qo'lingdan kelgancha tera
olsang bas!**



**E'TIBORIZ
UCHUN
TASHAKKUR!**

